

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SALOXIDDINOV MANUCHEXR SHAROFIDDINOVICH**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TUGALLANGANLIK  
SEMANTIKASINING FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDONDA  
VOQELANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi  
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам  
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

**Saloxiddinov Manuchexr Sharofiddinovich**

Ingliz va o‘zbek tillarida tugallanganlik semantikasining funksional-semantik  
maydonda voqelanishi .....3

**Салохиддинов Манучехр Шарофиддинович**

Реализация семантики завершенности в функционально-семантическом поле  
в английском и узбекском языках .....21

**Salokhiddinov Manuchekhr Sharofiddinovich**

Implementation of the Semantics of Completeness in the Functional-Semantic  
Field of English and Uzbek languages .....41

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SALOXIDDINOV MANUCHEXR SHAROFIDDINOVICH**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TUGALLANGANLIK  
SEMANTIKASINING FUNKSIONAL-SEMANTIK MAYDONDA  
VOQELANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3566 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Safarov Shahriyor Safarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xajiyeva Feruza Melsovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Djabbarov Sherzod Xalikulovich**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» aprel soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (599 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «06» mart kuni tarqatildi.

(2025-yil «06» mart dagi 25-05 - raqamli reestr bayonnomasi.)



**D.S.O'rayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida fe'l sistemasiga oid bo'lgan aspektual kategoriyalar tadqiqi doirasida grammatik vid (tus/tur), harakat tarzi (aksionsart), aksionallik (fe'l leksemasining chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyati) kabilarning grammatik ko'rsatgichlarini aniqlash, kontekstual semantikasini tahlil qilishga keng e'tibor qaratilib kelingan. Aspektuallikning bu xususiyatlari fe'l harakati kechimi bilan bog'liq bo'lib, funksional-semantik maydon va kontekstual semantika doirasida tahlil qilinishi, fe'lning aksional xususiyati, vid kategorial xususiyatlarga ega bo'lmagan tillar tizimida aspektual mazmuni namoyish etuvchi lisoniy vositalarni aniqlash hamda tillararo chog'ishtirish, aspektuallikning leksik, leksik-semantik, sintaktik, konseptual sathlari doirasida aksionallik (chegaralanganlik /chegaralanmaganlik) harakat kechimi bilan bog'liq vaziyatlarni o'rganish va chog'ishtirish fe'l semantikasi masalalarini tadqiq qilish masalalari muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida fe'llarning aspektual semantikasi funksional-semantik, kompozitsional, morfosintaktik kabi yondashuvlar tatbiqida o'rganilib kelinmoqda. Umuman, fe'llar aspektual semantikasining umumiy xususiyatlari tilning turli sathlarida tadqiq etilgan bo'lsa-da, aspektual semantikani leksik, grammatik, sintaktik sathlarda, kontekstual semantikasini qiyosiy tadqiq etish, fe'llarning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlari aspektual semantikani tasniflash, fe'l birliklarining semantik jihatdan ochilmagan ma'nolarini yoritish, fe'llarning aksional xususiyatlarini aniqlash jarayonida ularni funksional-semantik maydonda faollashuvi orqali ingliz va o'zbek tillarida aspektual ma'nolarini aniqlash, shakl va mazmun yaxlitligini ilmiy baholashga, hamda ilg'or nazariyalarni yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hozirgi zamon tilshunosligi bilan bir qatorda madaniyatlararo aloqa ko'lamini kengaytirishda muhim rolni o'taydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Fan va ma'rifat nafaqat yoshlarni, balki butun bizning jamiyatimizni intellektual va ma'naviy imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga egadir"<sup>1</sup>. Shunday vazifalar qatorida bir-biridan uzoq zaminda yashab, turli tizimli tillarda so'zlashuvchi ikki xalq – ingliz va o'zbeklar tili, nutqidagi aspektual ma'nolarining grammatik, funksional-semantik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish ham bor. Bu esa ikkala xalq o'rtasidagi manfaatli munosabatlarni yanada barqarorlashtirishda, tilshunoslikda tugallanganlik semantikasi va ularning funksional-semantik maydoni haqidagi ilmiy xulosalarni boyitishda mavjud imkoniyatlarni kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarori PQ-96-son 20.01.2022 yildagi Oliy Majlisga Murojaati. URL: <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta>

to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida aspektuallikni grammatik ifodasi, funksional-semantik maydonda voqelanishi masalasini o‘rgangan Vendler, Dowty, Yu.S.Maslov, A.V.Bondarko, B.M.Balin, M.A.Shelyakin, B.X.Rizayev, B.Comrie, D.R.Dowty, Ö.Dahl, C.Tenny<sup>2</sup> kabilar aspektologiyaga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan olimlar sifatida ma’lum. Fe’llarning aspektual semantikasini voqelantiruvchi birliklarning konseptual mazmuni qiyosiy-tipologik jihatdan A.B.Shluinskiy, V.A.Plungyan, Ye.V.Paducheva, Yu.D.Apresyan, S.G.Tatevosov, H.Filip, M.Krifka, B.Levin, H.Rappaport, S.Rothstein<sup>3</sup> kabilar tomonidan o‘rganilgan. Turkiyshunoslardan

---

<sup>2</sup> Vendler Z. Verbs and Times // *Philosophical Review* 56, 1967. – P. 143-160.; Dowty D. Word meaning and Montague grammar. Dordrecht: Reidel, 1979. – 415 p.; Маслов Ю.С. Результатив, перфект и глагольный вид // Типология результативных конструкций: Результатив, статив, пассив, перфект. – Л., 1983. – С. 41-54.; Bondarko A.V. Функциональная грамматика. Л.: Наука, 1984. – 133 с.; 67. Balin B.M. Сравнительная аспектология русского и немецкого языков. – Калининский гос. Университет, 85 с.; Шелякин М.А. Категория вида и способы действия русского глагола. – Таллин: Валгус, 1983. – 216 с.; Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: “Фан”. 1999. –121 с.; Ризаев Б.Х. Типы презентных аспектуальных ситуаций с неопределенными глаголами // *Nutq Lingvistikasi/ Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari – Samarqand*. 2006. – В. 17-18.; Comrie B. Aspect. An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. – Cambridge, 1976. – 142 p.; Dowty D. Word meaning and Montague grammar. Dordrecht: Reidel, 1979. – 415 p.; Dahl Ö. The tense-aspect systems of European languages in a typological perspective // *Tense and aspect in the languages of Europe*. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2000. – P. 3-25.; Tenny C. Aspectual Roles and the Syntax–Semantics Interface. – Dordrecht: Kluwer. 1994.

<sup>3</sup> Типология «небудущего времени» и лексическое значение глагола // Проблемы типологии и общей лингвистики. Международная конференция, посвященная 100-летию со дня рождения проф. А.А. Холодовича. Санкт-Петербург, 4-6 сентября 2006 г. СПб: Нестор-История, 2006. С.178-182.; Плунгян В.А. К описанию армянской глагольной парадигмы: «темпоральная подвижность» и перфектив // *Армянский гуманитарный вестник*, 2006, № 1, – С. 7-20.; Падучева Е.В. «Накопитель эффекта» и русская аспектология // *Вопросы языкознания*. – М., 2004. № 5. – С. 46-57.; Апресян Ю.Д. — М.: Языки славянских культур, 2006. – 912 с.; Tatevosov С.Г. Акциональность: типология и теория // *Вопросы языкознания научный журнал*, 2005, № 1, – С. 108-141.; 79. Filip H. Events and Maximalization: The Case of telicity and Perfectivity //

L.Yuxonson, L.Shyonig, A.A.Yuldashev, A.N.Kononov, S.A.Amanjolov, B.L.Serebrennikov, P.I.Kuznesov, F.A.Ganiyev, A.Hojiyev, N.Oralbayeva, R.Gazizov, G.Guzev, A.N.Tixonov, D.M.Nasilov kabilar mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shishgan bo'lsa, O'zbekistonda bu sohada B.X.Rizayev, A.Nurmuxammedov, G'.Mirсанov, O.Shukurov, S.Mengliyeva<sup>4</sup> va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Bu yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq predikat doirasida tugallanganlik semantikasini nutqiy vaziyatlarda voqelanishi, konseptual semantikasi qiyosiy jihatdan keng qamrovli tadqiq etilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida ifodalanadigan tugallanganlik ma'nosining funksional-semantik maydonda qiyosiy-tipologik tahliliga bag'ishlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining "Gap semantikasi va uning qiyosiy tipologiyadagi talqini" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o'zbek tillaridagi tugallanganlik semantikasining funksional-semantik maydonini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

chog'ishtirilayotgan tillardagi mavzuga oid ishlarni o'rganish orqali mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish va ularni umumlashtirgan holda munosabat bildirish;

chog'ishtirilayotgan tillardagi tugallanganlikni ifodalovchi vositalarning leksik- semantik birliklar zahirasini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillaridagi predikat anglatadigan tugallanganlik semantikasining kompozitsional yondashuv doirasida namoyon bo'ladigan mazmunini ochib berish;

har ikkala tildagi tugallanganlikni funksional-semantik maydonda voqelanadigan aspektual vaziyatlarning lisoniy va nolisoniy belgilarini ajratish.

**Tadqiqotning obyektini** ingliz va o'zbek tillaridagi tugallanganlik mazmunini beradigan lisoniy vositalar majmuasi tanlangan.

---

Theoretical and Crosslinguistic Approaches to the Semantics of Aspect, 2008. – Amsterdam. Volume 110. – P.217-256.; Krifka M. Thematic Relations as Links between Nominal Reference and Temporal Construction // Sag, I. A. and A. Szabolsci (eds.), *Lexical Matters*, 1992. – P. 29-53.; Levin B., Rappaport M. The lexical semantics of verbs of motion: The perspective from unaccusativity". In I.M. Roca (ed), *Thematic Structure: Its Role in Grammar*. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1992. – P. 247-269.; Rappaport Hovav, Malka, Beth Levin. An event structure account of English resultatives // *Language* 77: 2001. – R. 766-797.; Rothstein S. Secondary Predication // *Blackwell Companion to Syntax / Martin* 70. Everaert & Henk van Riemsdijk (Eds.) 2006. Vol. II. – P. 209-233.

<sup>4</sup> Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: "Фан". 1999. –121 с.; Нурмухамедов А. Выражение начинательности глагольного действия в современном немецком и узбекском языках: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. -Л., 1976. - 23 с.; Mirсанov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n....diss. avtoref. –T.; 2009. – 21 b.; Mirсанov G'. Q. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi.–Toshkent: "Navro'z", 2018. - 156 b.; Mirсанov G'. Q. "Qol" ko'makchi fe'li bilan ifodalanadigan aspektual semantika. // *Ilm sarchashmalari* , 2015, 7-son. – B. 37-42.; Shukurov O. U. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol. fan. nomz. diss....avtoref. – Samarqand. 2005. – 22 b.;

**Tadqiqotning predmeti** ingliz va o‘zbek tillaridagi tugallanganlik semantikasining funksional-semantik maydonining o‘xshash va farqli xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarni hal etishda funksional-semantik, distributiv, qiyosiy-tipologik, statistik tahlil metodlari hamda leksik-semantik guruhlariga ajratish maqsadini ko‘zlaydigan semantik tavsif usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida tugallanganlikning morfo-sintaktik, leksik-semantik mohiyati va funksional-semantik xususiyatlari har ikkala xalq tilining milliy-lisoniy, til va nutq madaniyati, milliy mentaliteti, poetik tafakkuri kabi omillar integratsiyasi negizida shakllanganligi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillarida tugallanganlikning analitik shaklli fe‘l birikmalari aksional xususiyatlar ta‘sirida funksional-semantik maydonda faollashadigan aspektuallik doirasidagi tugallangan vaziyatlarni ifodalashi dalillangan;

ingliz tilida tugallanganlik ikkilamchi predikat vazifasida sifat, infinitiv va sifatdosh shakllari, odatda chegaralangan xususiyatli fe‘llarning majhul nisbat shakli, bog‘lovchi fe‘l va sifat birikmali konstruksiyalar, tugallangan ma‘noga ega fe‘llarning leksik ma‘nosi yordamida ifodalansa, o‘zbek tilida *-gan* shakliga ega bo‘lgan sifatdosh va ko‘makchi fe‘llari bilan hosil bo‘ladigan analitik birikmalar, sifatdosh va *edi* to‘liqsiz fe‘l konstruksiyalar ustivorligida voqelanishi aniqlangan;

har ikkala tilda tugallanganlik semantikasining kompleks tasnifi asosida ularning yuqori funksional potensialga va o‘zining pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligi, paradigmatic va sintagmatik aktuallashuvi semantika-funksiya-pragmatika uchligida namoyon bo‘lishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aspektuallik german va turkiy tillarida morfologik hodisa sifatida emas, balki funksional-semantik kategoriya tarzida o‘rganilib, shu nuqtai nazardan ingliz va o‘zbek tillarida aspektuallik fe‘l semantikasini qiyosiy o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi tugallanganlikni anglatuvchi birliklar leksik va grammatik ifoda mazmuniga ko‘ra tavsiflanib, fe‘lning aksional ma‘nosi uning leksik-semantik imkoniyatlari bilan bog‘liq holda aniqlangan hamda tugallanganlikni bildiruvchi vositalarning leksik-semantik imkoniyatlari ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida aspektual vaziyat turlari ushbu tillar imkoniyatidan kelib chiqqan holda morfologik, sintaktik vositalar orqali faollashadi. Ingliz tilida aspektual vaziyatlarning ifodalanishi fe‘lning aksional xususiyati, fe‘lga birikadigan ravishlar, predloglar yordamida amalga oshirilsa, o‘zbek tilida ular fe‘lning aksional semantikasi, analitik shakllardagi yetakchi va ko‘makchi fe‘l birikmalari doirasida yuzaga kelishini namoyon qiluvchi tahlil usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo‘llangan yondashuv va usullarning zamonaviy nazariyalarga mosligi hamda metodologik jihatdan

funksional-semantik, distributiv, qiyosiy-tipologik, statistik tahlil kabi usullar bilan asoslanganligi, tadqiq materialining ishonchli manbalardan olinganligi, muammoning aniq shakllantirilganligi, xulosalarning qat'iyliigi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar tatbig'ining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalar va nazariy umumlashmalar ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlik ma'nosini semantik maydonda faollashuvida, olib borilgan leksik-semantik, grammatik tahlilning funksional-semantik maydondagi munosabati tahlili najasida chog'ishtirilayotgan tillarda tugallanish semantikasi leksik-semantik, grammatik, konseptual sathlarda ifodalanishi sabab tilshunoslikning funksional-semantik maydon, konseptual sathlarda nazariy jihatdan o'rganilish imkoniyatlari kengligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologiya yo'nalish talabalari va magistrantlari uchun "Nazariy grammatikaning dozarb masalalari", "Qiyosiy tipologiyaning dolzarb masalalari", "Kognitiv tilshunoslik", "Semantika", "Qiyosiy tipologiya", "Nazariy grammatika" fanlaridan o'quv qo'llanmalarini yaratishda, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tishda hamda umumiy aspektologiyaning dolzarb muommalariga doir maxsus kursni tashkil qilishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, dissertatsiyada ko'rib chiqilgan nazariy-faktik materiallardan filologiya yo'nalishi sohasidagi bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tilini o'rganayotgan talabalar uchun ingliz va o'zbek tillaridagi fe'llarning semantik tafovutlarni anglashda ham muhim amaliy qiymatga egaligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlik semantikasining funksional-semantik maydonda voqelanishi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlikning morfo-sintaktik, leksik-semantik mohiyati va funksional-semantik xususiyatlari har ikkala xalq tilining milliy-lisoniy, til va nutq madaniyati, milliy mentaliteti, poetik tafakkuri kabi omillar integratsiyasi negizida shakllanganligiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan II-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikasion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihani bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 6-sentyabrdagi 324/02-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari va xulosalari oliy o'quv yurtlari filologiya fakulteti talabalari, magistrantlariga ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tishda manba sifatida xizmat qilgan.

ingliz va o'zbek tillari tugallanganlikning analitik shaklli fe'l birikmalari, aksional xususiyatlari ta'sirida funksional-semantik maydonda faollashadigan aspektuallik doirasidagi tugallangan vaziyatlarni ifodalashiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2014-2016-yillarda bajarilgan Yevropa Ittifoqining Tempus Project 544161-Tempus-1-2013-1-UK-Tempus-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended

Masters Programs” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 6-sentyabrdagi 322/02-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot ishidagi erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalardan institutning o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan.

ingliz tilida tugallanganlik ikkilamchi predikat vazifasida sifat, infinitiv va sifatdosh shakllari, ba'zi (odatda chegaralangan xususiyatli) fe'llarning majhul nisbat shakli, bog'lovchi fe'l va sifat birikmali konstruksiyalar, tugallangan ma'noga ega fe'llarning leksik ma'nosi yordamida ifodalansa, o'zbek tilida –*gan* shakliga ega bo'lgan sifatdosh va ko'makchi fe'llari bilan hosil bo'ladigan analitik birikmalar, sifatdosh va *edi* to'liqsiz fe'l konstruksiyalar ustivorligida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda bajarilgan Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-1-2015-EPPKA2- CBHE-SP-ERASMUS+ CBHEIMEP “O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” mavzusidagi xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 6-sentyabrdagi 321/02-son ma'lumotnomasi). Natijada qiyosiy tipologiya fanidan o'quv qo'llanmalarini yaratishda hamda umumiy aspektologiyaning dolzarb muammolariga doir maxsus kurs sifatida foydalanilgan.

har ikkala tilda tugallangan semantikasining kompleks tasnifi asosida ularning yuqori funktsional potentsialga va o'zining pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligi, paradigmatic va sintagmatic aktuallashuvi semantika-funktsiya-pragmatika uchligida namoyon bo'lishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida “Sifatli ta'lim-taraqqiyot poydevori” ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-sentyabrdagi 01-07/301-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy ommabop ahamiyatga ega tavsiyalardan keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy maqola nashr qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, boblar bo'yicha xulosalar, ishning xulosasi, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 135 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Aspektuallikning tarkibiy qismlari**” deb nomlanib, mazkur bobda aspektuallikning grammatik ko‘rsatgichlari, turli tillar tizimida faza fe‘llari, harakat tarzi tasnifi va konseptual ifodasi yoritilgan.

Har bir tilda fe‘llarni leksik-semantik kategorizatsiyalashda harakat tarziga murojaat qilinadi. Shu asosda ularni quyidagi sinflarga yoki kategoriyalarga ajratish mumkin: harakat, jarayon, xususiyat, munosabat. Demak, har bir fe‘l semantikasida olamni tasvirlovchi har qanday hodisaga tegishli bo‘lgan harakat kechim, jarayon, holat kabilar tarzida konseptuallashadi.

Fe‘llarni dinamiklik semantikasi quyidagi konseptual xususiyat va belgilar mavjudligida aniqlanadi: 1) *subyektga yo‘naltirilgan* (subyektning aniq turiga yo‘naltirilgan); *faollik* (harakatni amalga oshirish uchun subyekt o‘z energiyasini qo‘llashi); *boshqaruv* (o‘z istagini amalga oshirish jarayonini boshqarish, ya‘ni shu bilan birga ma‘lum natijaga erishish); 2) *obyektga yo‘naltirilgan* (ma‘lum obyekt turiga qaratilgan va unga ta‘sir etish xususiyati); *aniq natijaga erishilish ta‘sir belgisi* (ma‘lum obyekt turi yoki shaklini o‘zgarishiga erishish); 3) *aspektual-temporal va sifatiy belgilar: vaqt jarayonida joylashuv* (vaqtning aniq ko‘rsatilishi: masalan: soat beshda), *faza turlariga bo‘linishi* (fazalarga bo‘linish: boshlanish, tugallanish, harakatning o‘rtasi); *harakatning karraligi* (bir karralik, ko‘p karralik, takrorlanuvchanlik); 4) *davomiylilik*. Masalan: *Tom was painting the fence at 5 o‘clock yesterday*<sup>5</sup>.

A.V. Bondarko aspektual ma‘nolar tadqiqida semantik belgilar muhim o‘rin tutishi borasida so‘z yuritarkan, faqatgina grammatik shakl emas, balki kontekst hamda so‘zning leksik ma‘nosi ham muhim ahamiyatga egaligini aytib o‘tadi. Buning natijasida olimning “funktional-semantik kategoriya” nazariyasi yuzaga kelgan<sup>6</sup>.

Aspektuallik, temporallik va aksionsart ma‘nolarini alohida ajratib o‘rganish keng tus olgan bo‘lsa-da, ularni bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganishga e‘tibor qaratilishi muhimligi oydinlashadi. Bunga sabab sifatida fe‘l semantikasini kontekstual va diskurs doirasida o‘zgaruvchanligi, ya‘ni “egiluvchan”ligida deb baholash mumkin. Aspektuallik va aksionsart ma‘nolarining umumlashgan turi uchun A.V. Bondarko aspektuallik atamasini qabul qiladi. Aynan shu atama fe‘l ma‘nolarining matndagi mazmunini o‘rganish va tasniflash aspektning grammatik shakllanmagan tillar uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

O‘zbek tilida aspektni grammatik kategoriya sifatida mavjudligi borasida birinchi bor A.G‘ulomov gapirib o‘tadi. U bevosita rus tilidagi vid (tus) kategoriyasiga o‘xshash hodisalarni topishga harakat qiladi<sup>7</sup>. Keyinchalik

<sup>5</sup> Mirsanov G‘.Q. Ingliz va o‘zbek tillarida yurish-harakat fe‘llarining aksional va aspektual xususiyatlari. Filol.fan.n....diss. avtoref. –T:, 2009. – 21 b.

<sup>6</sup> Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – Л., 1983. – 208 с.

<sup>7</sup> G‘ulomov A. G‘. Fe‘l. – Toshkent: O‘qituvchi, 1954. – 88 b.

akademik A.Hojiyev o‘zbek tilida vid kategoriyasi mavjudligini qat’iyan rad etadi. Olim o‘zbek tilidagi yetakchi va ko‘makchi fe’l birikmalari o‘ziga xos alohida sathni tashkil etishini ta’kidlaydi<sup>8</sup>. Olim o‘zbek tilidagi analitik shakllarni aspektual semantikasiga e’tibor qaratmaydi. Turkiy tillarda fe’l semantikasi tadqiqi bilan shug‘ullangan D.Nasilov o‘zbek tilidagi yetakchi va ko‘makchi fe’l birikmalari aspektual semantika ifodalashini ta’kidlaydi. Muallif o‘zbek tilidagi analitik shakllar yordamida ifodalanadigan aspektual ma’nolarni leksik-grammatik kategoriyaga tegishli deb qaraydi<sup>9</sup>. Aspektuallik borasida qator ishlar olib borgan B.X.Rizayev<sup>10</sup> va G‘.Q.Mirsanovlar<sup>11</sup> ham asosiy e’tiborni fe’lning chegaralanganlik/chegaralanmaganlik xususiyatlari asosida hosil bo‘ladigan ma’nolariga qaratishadi.

Tugallanganlik konsepti semantik jihatdan ikkiga, tugallanganlik va natijaviylik turlariga ajratiladi. Mazkur hodisalarning tarkibiy tuzilishi ham murakkab va sodda vaziyatlarning ifodalanishida yuzaga keladi. Masalan: *With the commencement of the rain the lightning gradually ceased [Cronin, 56]; Throughout the interview she kept her temper perfectly, laughing and jesting in a slightly patronizing way at her husband, whereas Mor by the end of it was reduced to almost speechless anger (Murdoch: 104)*. Keltirilgan misollarning birinchisida faza fe’li biror vaziyatning yakunlanishini bildirgan bo‘lsa, ikkinchi misoldagi faza fe’li esa, natijani ifodalagan.

Ma’lumki, semantik vazifa mazmunga aloqador bo‘lgan birliklar bilan bir qatorda reallikka aloqador voqelanishni qamrab oladi. Vazifa til birliklari anglatadigan ma’noga bog‘lanadi<sup>12</sup>. Funktsional-semantik maydon grammatikaning asosiy semantik kategoriyalaridan bo‘lgan, 1) aspektuallik (vaqt kechimidagi harakatlar, taksis); 2) temporallik; 3) modallik; 4) nisbat; 5) subyektivlik, obyektivlik (subyekt predikat, obyekt predikat munosabatlari) ifodasining kommunikativ mazmuni, aniqlik, noaniqlik; 6) miqdoriylik, sifatiylik, possessivlik, komparativlik; 7) lokativlik kabilarni birlashtiradi. Funktsional-semantik kategoriya tahlilida quyidagilar farqlanishi muhim hisoblanadi: a) til sistemasidagi funktsional-semantik kategoriya strukturasi (“markaz va periferiya”, periferiya va yadro komponentlar o‘rtasidagi farqlovchi semantik belgilarning taqsimlanishi, guruhlash, umumiy mikromaydon, ularning qurilish tamoyillari; b) funktsional-semantik kategoriyaning aniqlash mazkur kategoriya komponentlarining nutqdagi o‘zaro ta’siri: kontekstdagi grammatik va grammatik bo‘lmagan vositalar munosabati, semantik tuzilmalarni yaratish, konkret iborada funktsional–semantik mikromaydonni ajratishdan iborat. Funktsional-semantik maydon grammatik va leksik birliklarni, shuningdek, semantik vazifalari umumiy xususiyatlariga ko‘ra birikadigan turli tipdagi leksik-sintaktik vositalarni guruhlashni nazarda tutadi<sup>13</sup>.

<sup>8</sup> Hojiyev A. Fe’l. – Toshkent: Fan, 1973. – 192 b

<sup>9</sup> Насилов Д.М. Формы выражения способов глагольного действия в алтайских языках. // Очерки сравнительной морфологии алтайских языков. – Л.: Наука, 1978. – С. 88-177.

<sup>10</sup> Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: “Фан”. 1999. –121 с.

<sup>11</sup> Mirsanov G‘. Q. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi.–Toshkent: “Navro‘z”, 2018. - 156 b.

<sup>12</sup> Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии. – Л., 1983. – 208 с.

<sup>13</sup> Бондарко А.В. Функциональная грамматика. Л.: Наука, 1984. – 133 с.

Fe'ning mazmun–ma'nosi ko'p jihatli murakkab hodisa bo'lib, turli bo'laklarni (leksik, grammatik, dinotativ, konnotativ) o'z ichiga oladi. Bu turli vazifalarni bajarib, har xil turlar bilan berilgan nutq birligi sifatida o'zida ko'p ma'lumotlarni mujassamlashtirgan. Nutq faoliyati fe'llarini tasvirlashda so'zning ichki formasi (mazmuni) tushunchasi muhim omil hisoblanadi. Biz so'zning ichki ma'nosi deb uning til birligi nominal (atama) ma'nosini tushunamiz. Ya'ni so'zning biz real holatda qabul qiladigan, anglaydigan semantik vazifasi tushuniladi. Aspektuallik munosabat nazariyasiga asoslanadi hamda aspektual tarkib berilgan mazmun va harakatdan iborat shakllanadi. Aspektuallik tarkibiga kiruvchi harakat tarzi hodisasi predikatlarning leksik–grammatik mazmuniga ko'ra ifodalaydigan ma'nolari tasnifi hisoblanadi. Ko'pgina hollarda ushbu mazmun temporal va makon o'lchami asosida quriladi. Aspektual xususiyat hodisaning ichki harakat va holat tarkibiga asosan tahlil etiladi.

Ifodalangan barcha hodisa, jarayonlar til tizimidagi uzviylik, leksik va grammatik muvofiqlikka asoslanadi. Ifodalaniladigan fikrlar leksik birliklari, ayniqsa fe'llarning o'ziga xos zahirasi, semantik turli tumanligi orqali namoyish etiladi. Ingliz tiliga xos bo'lgan xususiyat sifatida harakat tarzi turli tuman fe'li iboralar va subyekt hamda obyekt argumentlarining semantik miqdori ham e'tibordan chetga chiqmaydi, ya'ni butun predikat doirasida talqin etiladi. Nutq jarayonida qo'llaniladigan fe'l harakatlarning boshlanishi, tugallanishi, davomiy vaziyatlarni ifodalashi va tanlanadigan fe'llarning uyg'unligini keltirib chiqaradi. Natijada lahzalik, karralik kabi hodisalar ham vujudga keladi. Lahzalik, karralik harakatlari leksik vositalar, shu semantik belgilarga ega bo'lgan so'zlar, grammatik vositalar yordamida vujudga keladi. Bu jarayonlar aspektuallikning harakat tarzi kategoriyasida bir necha sinflarga bo'linishi mumkin. Xususan, leksik birliklarning sof semantik va leksik xususiyatlariga asoslanilgan holda, shuningdek, fe'l birliklarining boshqa til vositalari bilan aloqaga kirishishi, ya'ni kombinatsiyalashuvi orqali yuzaga keladigan lahzalik yoki karralik, hamda grammatik vositalar orqaligina hosil bo'ladigan ma'nolar, grammatik xususiyat va leksik birlik uyg'unlashuvi orqali vujudga keladigan semantik ma'nolar orqali harakat tarzi turlariga ajratiladi.

Aspektual semantikaning to'liqroq yoritilishi ham bevosita maydon nazariyasi doirasida olib borilishi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tugallanganlikni ifodalovchi lisoniy birliklar tipologiyasi”** deb nomlangan bo'lib, bobda ingliz va o'zbek tillarida tugallanganlikni ifodalovchi leksik birliklar, tugallanganlikka aloqador temporal vositalar, tugallanganlikning grammatik ko'rsatkichlari haqida turli fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Tugallanganlik xususiyatiga ega bo'lgan fe'llar semantikasini birlashtiruvchi komponentlar sifatida obyektning birlamchi holatini butunlay o'zgarishi natija sifatida qabul qilinishi, kauzativ jarayon, harakat natijasida obyektning birlamchi holatini umuman yo'qotishi kabilarni keltirish mumkin. Ammo, mazkur semali fe'llar hamma tillarda ham bir xil ekvivalent sifatida amal qilavermaydi. Ba'zi tillarda ushbu hodisa grammatik shakllangan bo'lishi mumkin. Shuningdek, bir fe'l

leksemasi turli grammatik birliklar ta'sirida har xil semantik ifodaga ega bo'lishi mumkin. Jumladan ingliz tilidagi biror tugallangan xususiyatli fe'lning o'zbek tilidagi ekvivalenti har doim ham bir xil semani ifodalamaydi. Qiyoslang: *Meanwhile Mr. McGowan's smile faded to a look of perplexed gloom.* [O'Henry, 43]; *Meni shuur tark etgan, butun vujudim karaxt bo'lib qolgan edi* [S.Ahmad, 29].

Fe'llar gap ma'nolarining hosil bo'lishida muhim o'ringa ega. Yuqorida aytilganidek, har bir fe'l o'z leksik ma'nosidan tashqari, boshqa so'z turkumlari bilan birikib kelishi natijasida majmuaviy ma'nolar hosil qiladi. Ushbu majmualar fe'llarning leksik-semantik ma'nolarini farqlash bilan birga, turli birikmalar vujudga keltira olishi mumkin. Masalan: *At the moment, though, the red hen came bursting through the leaves, her wings partially opened and trailing in the dust* [Ch. Frazier, 32].

O'zbek tilida ko'makchi fe'llar yetakchi fe'l bilan birikishi orqali turli ma'nolarni yuzaga keltiradi. Ular ba'zi hollarda bir-biriga yaqin ma'nolarni anglatadi, degan fikr ham paydo bo'lishi mumkin, masalan, *kitobni o'qib bo'lmoq, kitobni o'qib chiqmoq, kitobni o'qib tugatmoq* bir qarashda bir xil ma'no, ya'ni o'qish jarayonining nihoyasiga yetganligini ifodalaydigandek ko'rinadi. Ammo, ular matnda qo'llanilishi bilan, va shuningdek aspektual ma'no jihatdan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, *kitobni o'qib bo'lmoq* iborasi qo'llanilganida kitobni o'qish jarayoni yakunlanganligi nazarda tutiladi. *Kitobni o'qib chiqmoq* birikmasida esa o'quvchi tomonidan kitob har tomonolama o'rganilganligi ma'nosi anglashiladi. *Kitobni o'qib tugatdi* birikmasida esa, ma'lum hatti-harakat natijasida (va nihoyat) o'qish jarayonining tugallanganligi nazarda tutiladi.

O'zbek tilida tugallanganlik boshqa tillardagi kabi sifat bilan ham yasaliish imkoniga ega. Qiyoslanayotgan ingliz tilidan farqli ravishda, o'zbek tilida tugallangan ma'no sifatga yoki otga emas, balki ikkilamchi predikatni hosil qiladigan sifatdoshga tegishli sanaladi. Quyidagi konstruksiyalarda sifatdosh tugallanganlikning ko'rsatgichi vazifasini bajaradi. Masalan:

Bo'ri yelkasiga *toza qilib yuvilgan* sochiq tashladi [Tog'ay Murod, 21].

To'plangan misollar qatorida tugallangan konstruksiya *-ib* ravishdosh shaklidagi *bo'lib, qilib* fe'llari bilan hosil bo'lgan ko'plab misollar uchradi. Xulosa qilish mumkinki, o'zbek tilida tugallanganlikni ifodalovchi qurilmalarning shakllanishida ushbu ikkala ko'makchi fe'l asosiy element sifatida baholanishi mumkin.

O'zbek tilidagi rezultativ konstruksiyalarda ishtirok etadigan fe'l turkumidagi nominativ birliklar esa mazkur vazifani bajarmaydi.

Ingliz tilidagi perfekt shakli bilan ifodalanadigan tugallanganlik grammatik shaklga bog'liq bo'lsa-da, bunda fe'lning dinamik xususiyati ham o'z o'rniga ega. Faqatgina dinamik fe'llar perfekt shaklida tugallangan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham, vaziyat, hodisa yoki jarayonlar hozirgi noaniq zamonda muqobil tahlil uchun majburiy qo'llanilish sifatida talqin qilish mumkin. Bu kabi jarayonlar tugallangan va ba'zi hollarda natijaga yetaklovchi tugallangan aspektual vaziyatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Kichik vaziyatlarda yuzaga keladigan tugallanganlik mazmuni hosil bo'lishida temporal vositaning leksik-semantik xususiyati va fe'lga tegishli bo'lgan aksional semantikaning o'rni muhimroq hisoblanadi. Masalan: *Sophia moved up*

*last, slowly, for her long woolen dress was having its woven threads pulled by briars* (Stone, 130). *Aravakash qo‘l siltab, yana Boboqulni chaqirdi* [L. Mahmudov “*Jasur bolalar*”, 31].

Fe‘l semantikasida o‘ziga xos vaziyatlarni aks ettira oladigan ma‘no bo‘lamlari mavjud bo‘lib, ular freym shakllanishiga imkon yaratadi. Fe‘l semantikasini modellashtirishda uning tarkibidagi komponentlar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, o‘zbek tilida mazkur komponent sifatida ko‘makchi fe‘llarni keltirish mumkin. Ko‘makchi fe‘llar tugallanganlik freymi hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Masalan:

1) “Yaxshi bola” bo‘lib, qayiqcha ustiga *o‘tirib oldim*. Dadam bir *xatlab ariqdan o‘tdi-da*, kartoshka paykalga *kirib ketdi* [O‘. Hoshim, 32];

Tugallanganlik ifodalanish usullariga ko‘ra tillar kesimida farq qiladi. Jumladan, ingliz tilida tugallanganlikni ifodalovchi til birliklarini uch guruhga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi va asosiysi maxsus ikkilamchi predikatsiyaga kirishuvchi konstruksiyalar; *John painted the house in red; Mary drank her coffee hot; Mary believes/considers John foolish*.

O‘zbek tilida esa tugallanish semantikasining o‘zini bir necha semantik turlarga ajratish mumkin. Ular ham grammatik ham leksik xususiyatlarga asoslaniladi. Xususan, *ol, ket, qol, tush, yet* ko‘makchi fe‘llari yordamida ifodalanadigan tugallanishning turli semantik turlarini keltirish mumkin. Masalan: *o‘qib olmoq, tushib ketmoq, ketib qolmoq, yiqilib tushmoq, kelib yetmoq* va hakoza. Tugallanishni anglatuvchi leksik-grammatik ko‘rsatgichlar ham mavjud bo‘lib, ularga *bo‘l, tugat, bitir* fe‘llarini ko‘rsatish mumkin. Masalan: *o‘qib tugatmoq, o‘qib bo‘lmoq, o‘qib chiqmoq*. Bu qo‘llanishlar o‘ziga xos semantik jihatlar bilan farqlanadi.

O‘zbek tilida tugallanganlik predikatda ifodalanadi. Shuningdek, *-an, -in, -il* (belgilandi, qilindi, bajarildi, amalga oshirildi) kabi maxsus suffikslarni tugallanganlikni anglatuvchi markerlar sifatida qabul qilish mumkin. Chunki ushbu suffikslar predikat ifodalagan harakatning natijasini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Sifat yordamida ifodalanadigan tugallanganlikni kuchsiz xususiyat sifatida baholash mumkin. Misol uchun biror holat o‘zgarishi *qilmoq* fe‘li (*U uyni top-toza qilib qo‘ydi*) yordamida ifodalanadi.

Qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillaridagi aspekt ma‘nolarini chog‘ishtirish ushbu tillardagi aspektual belgilarning o‘ziga xos ifodalanish usullari, bir biriga o‘xshash va noo‘xshash tomonlarini yoritishga yordam beradi. Buning namunasini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

*Ingliz va o‘zbek tillarida tugallanganlikni ifodalovchi grammatik vositalar*  
*Jadval 1.*

№	<i>Ingliz tili</i>	<i>O‘zbek tili</i>
1	Dinamik fe‘llarning perfekt shakli	To‘liqsiz fe‘llar ishtirok etgan tuzilmalarning o‘tgan zamon shakli
2	Chegaralangan aksional xususiyatli fe‘llarning o‘tgan zamonda qo‘llanilishi	Chegaralangan xususiyatli fe‘llarning -bo‘l, -qol, -yet ko‘makchi fe‘llari bilan birikishining o‘tgan zamondagi shakli

Tahlil jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida tugallangan ma’nolarni hosil qiluvchi lisoniy ifoda vositalarining quyidagi turlari aniqlandi:

1) tugallangan tuzilmada ishtirok etayotgan fe’l nominativ argumentning miqdoriy ko‘rsatkichi, subyektning holat o‘zgarishi obyektning parchalanish xususiyati, predikatning cheklanganlik xususiyati mavjudligi;

2) subyekt tomonidan amalga oshirilgan harakatning yakuniy, tugal nuqtasining mavjudligi mantiqan namoyon bo‘ladi;

3) tugallangan tuzilmalarning shakllanishida yetakchi va ko‘makchi fe’llarning leksik ma’nosi, chegaralangan aksional xususiyati (o‘zbek tiliga xos) muhim ahamiyat kasb etadi;

4) ingliz tilida tugallanganlik aniq morfologik belgilarga ega, jumladan, dinamik xususiyatli fe’llarning perfekt shaklida qo‘llanilishi, chegaralangan aksional xususiyat hamda tugallangan ma’noga ega faza fe’llarning infinitiv yoki gerundiy bilan birikishi orqali amalga oshiriladi;

5) o‘zbek tilida tugallangan tuzilmalar lokativ, instrumental otga nisbatan bajarilgan harakatni aks ettiradi;

6) o‘zbek tilida tugallangan tuzilmalar sifatdash shakli, “bo‘lmoq”, “qilmoq”, “chiqmoq”, “tugatmoq” fe’llarining yetakchi va ko‘makchi vazifalarida nominativ birlikning holat o‘zgarishini anglatganda hosil bo‘ladi;

